

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "Davlat maktabgacha ta`lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to`lash tartibini takomillashtirish to`g`risida"gi 10-sonli qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida" 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son qarori ijrosini ta`minlash, shuningdek, maktabgacha ta`lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to`lash tartibini takomillashtirish maqsadida **Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "Davlat maktabgacha ta`lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to`lash tartibini takomillashtirish to`g`risida"gi 10-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:
 - davlat maktabgacha ta`lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to`lash va ularni rag`batlantirish tartibi to`g`risida nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;
 - O`zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilganligi;
 - O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.
- Davlat maktabgacha ta`lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to`lash va ularni rag`batlantirish tartibi to`g`risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Qoraqalpog`iston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilsin.
- Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)